

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

«Kasb ta'limi» fakulteti
Kasb ta'limi «Iqtisodiyot» kafedrası

«Moliyaviy hisob» fanidan

REFERAT

Bajardi:

2-KTBHA-13guruh
talabasi Xolmatov SH.

Qabul qildi:

Xolmirzayev U.

Namangan - 2015 y.

MAVZU: MAHSULOT TANNARXI KALKULATSIYA QILISH USULLARI.

REJA:

- 1. Xarajatlar klassifikatsiyasi**
- 2. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi**
- 3. Yordamchi ishlab chiqarishning hisobi.**
- 4. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Xarajatlar klassifikatsiyasi

Kalkulatsiya - ishlab chikarilgan mahsulot va sotib olingan moddiy boyliklarning tannarxini aniqlash usuli bulib, buxgalteriya hisob ob`ektlari xaqida umumlashgan ma`lumotlar olish uchun zarur.

Xujjatlardagi ma`lumotlar baxolangandan sung ularni ma`lum tartibda gurulash va umumlashtirish kerak. Buning uchun esa buxgalteriya hisobda schyotlar tizimi qollaniladi. Xujalik mablaglarining xarakatini guruxlash va kun sayin aks ettirib borish uchun xujalik operatsiyalari schyotlarga ruyxatlashtirib boriladi.

Mahsulot tannarxi ushbu mahsulot qiymatining pul shaklidagi qismi bo`lib, moddiy, mehnat va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo`ladi.

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining asosiy ko`rsatkichlaridan biri xisoblanib, korxonaga mahsulot tayyorlash qanchaga tushganini ko`rsatadi. Tannarx ko`rsatkichi sotish narxlarini belgilash, mahsulotlar rentabelligini hisob-kitob kilish, xarajatlarni pasaytarish rezervlari-ni aniqiash uchun ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini kamaytirish muhim axamiyat kasb etadi, chunki raqobatchilik muhitida mahsulotga talab va uning sifatigina emas, balki anchagina qismini tannarx tashkil etadigan uning narxi xam muximdir.

Boshqaruvni takomillashtirish va xarajatlarning to`g`ri va o`z vaqtidagi buxgalteriya hisobini yo`lga qo`yish, shuningdek moddiy, mexnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ustidan qattiq nazoratni tashkil etish, ishlab chiqarishga taalluqli bo`lmagan xarajatlar va talafotlarni har tomonlama kamaytirish mahsulot tannarxini pasaytirishning eng muxim yo`llaridan biri xisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishning asosiga quyidagi asosiy tamoyillar qo`yilgan:

- buxgalteriya xisobida xarajatlarni iqtisodiy jihatlari va moddalari bo`yicha, mahsulot turlari va korxonaga bo`linmalari bo`yicha guruxlashtirish;
- mahsulot ishlab chiqarish va uning tannarxini kal kulyatsiyalashga doir xarajatlar hisobining qabul qilingan uslubiyati yil davomida o`zgarmasligi;
- xarajatlar hisobi ob`ektlarini mahsulot tannarxini kal kulyatsiya qilish ob`ektlari bilan muvofiqlashtirishi;
- daromadlar va xarajatlarni hisobot davrlariga to`g`ri kiritishi;
- hisobda ishlab chiqarishning joriy xarajatlari va kapital qo`yilmalar bilan bog`liqxarajatlarni ajratishi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to`g`risidagi axborotni shakdlantirishning yagona tamoyillarini ta`minlash uchun davlat tomonidan mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, daromad va xarajatlarni guruhlarga ajratish, korxonalar faoliyati turi, mulkchilikli va idoraviy bo`ysunishidan kat iy nazar ularni buxgalteriya hisobvda aks etgirishning umumiy tartibi belgilangan.

Ana shu maqsadlarda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldaga 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo`yicha xarajatlar tarkibi-hamda moliyaviy natijalarni shakllangarish tartibi haqidaga Nizom" (keyingi o`zgartirishlar bilan) ishlab chiqildi.

Nizom buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadlari uchun xarajatlarni hisoblashda yuzaga keladigan farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Buxgalteriya xisobining asosiy maqsadi xarajatlarni xisoblash va uning bozor iqtisodiyoti sohasida raqobatbardoshligini belgilash uchun korxonaga faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash hisoblanadi. Korxonaga xarajatlarning bir qismi respublika soliq qonunchiligiga ko`ra, uning soliq siyosatiga muvofiq soliqqa tortiladigan bazaga kiritilish natijasida soliqqa tortiladigan foyda balans foydasidan (buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida olinadigan foydadan) farq qiladi.

Shuning uchun Nizomda soliqqa tortiladigan bazani belgilash uslubiyati yoritilgan, "Soliqqa tortiladigan" bazaga kiritiladigan xarajatlar moddalari (chegarilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar)" degan 1-ilova va "Mazkur davrning soliqqa tortiladigan bazasidan chiqarilmaydigan, lekin keyingi davrlarning soliqqa tortiladigan bazasidan chiqariladigan xarajatlar (vaqtinchalik tafovutlar)" degan 2-ilova berilgan.

Nizomda moliyaviy natijalarni shakllantirish uslubiyati belgilangan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ro'yxati, shuningdek korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ro'ixati keltirilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish uchun bu xarajatlarni maqsadga muvofiq turkumlash zarur.

Ishlab chikarish xarajatlari tarkibi to'g'risidaga mazkur Nizomga asosan barcha xarajaxlar quyidagi guruxlarga ajratiladi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- asosiy faoliyatdan kelgan foydani aniqlash vaqtida xarajatlar tarkibiga kiritiladigan, ammo mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan davr xarajatlari;
- korxonada umumxo'jalik faoliyati bo'yicha olingan foyda yoki zararni hisoblash paytida inobatga olinadigan korxonada moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- foyda yoki daromad solig'ini to'lashdan oldingi foyda yoki zararni hisoblash vaqtida inobatga olinadigan favqulodda zararlar.

Shu sababli xarajat moddalarini guruhlash quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat sarflari;

v) ishlab chiqarishga taalluqli boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan qo'shimcha xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

a) sotish bo'yicha xarajatlar;

b) boshqarish xarajatlari (mab'uriy xarajatlar);

v) boshqa operatsiyalarga oid xarajatlar va zararlar;

g) kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

a) foizlar bo'yicha sarflar;

b) chet el valyutasining kursi o'zgarishidan ko'rilgan zararlar;

v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarf-xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Mahsulot tannarxiga qo'shilish usuliga qarab ishlab chiqarish xarajatlari ikki guruxga bo'linadi: *bevosita (to'g'ri) xarajatlar, bilvosita (egri) xarajatlar.*

Bevosita (to'g'ri) xarajatlar deb tegashli kal kulyatsiya ob'ektining tannarxiga to'g'ri to'g'ri, ya'ni bevosita o'tkaziladigan xarajatlarga aytiladi. Masalan, texnologik maqsadda sarflangan xomashyo va asosiy materiallar, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning asosiy ish haqi va hokazo.

Bilvosita, ya'ni egri xarajatlar bir necha xil mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq (quvvat, suv, bug' va hokazolar sarfi), shuning uchun ular mazkur mahsulot turlari o'rtasida taqsimotning aniq bazalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning miqdoriga bog'liqligiga qarab xarajatlar ikki guruxda bo'linadi: *o'zgaruvchan, shartli o'zgarmaydigan.*

Ishlab chiqarayotgan mahsulot miqdorining ko'payishi yoki kamayishiga qarab o'zgaradigan (ular ham ko'payadi yoki kamayadi) xarajatlar **o'zgaruvchan** deyiladi. Bularga xomashyo, materiallar, texnologik maqsadda ishlatiladigan yoqilg'i va elektrquvvati, ishchilarning ish haqi, asbob-uskunalarini saqqash va foydalanish xarajatlari kiradi.

Mahsulot miqdorining o'zgarishi ta'sir etmaydigan xarajatlar **shartli o'zgarmaydigan** xarajatlar deb ataladi. Bularga umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar tarkibida ham mahsulot miqdorining ko'payishi yoki kamayishiga qarab har xil sanoat tarmoqlarida har xil darajada o'zgaradigan xarajatlar bo'lishi mumkin. Lekin bunday xarajatlar umumtsex xarajatlari ichvda kam salmoqqa ega yoki ularning o'zgarishi uncha sezilarli emas. Shuning uchun ular shartli o'zgarmaydigan xarajatlar deb nomlangan.

Shartli o'zgarmaydigan xarajatlar mutlaq miqdor bo'yicha nisbatan o'zgarmay qolsada, ishlab chiqarish o'sgavda tannarxni pasaytirishning muhim omiliga aylanadi, chunki bunda ularning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan miqdori kamayadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga qarab bir turdagi (o'xshash) va har xil turdagi (majmua) xarajatlarga bo'linadi. Bir turdagi xarajatlarga xomashyo va materiallar, ish hakr, yokdig'i va quvvat xarajatlari kiradi. Majmua sarflar tarkibvda har xil turdagi xarajatlar yig'iladi. Masalan, umumishlab chiqarish xarajatlari, ish haqi, yoqilg'i, amortizatsiya va hokazo sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tan-narxi mahsulotni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, quvvat, asosiy fondlar, mexnat resurslarining, shuningdek ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning qiymat bahosini ifodalaydi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish bilan bog'liq, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishi shartlagan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- materiallarga doir bevosita xarajatlar;
- mexnatga doir bevosita xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish axamiyatidagi ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiladigan xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga muvofiq ravishda quyidagi elementlari bo'yicha turkumlanadi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymatini chegirgan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatidagi mexlatga haqto'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarish axamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish xususiyatidagi boshqa xarajatlar. Moddiy xarajatlar qismida mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- tashqaridan sotib olinadigan, ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibiga kirib, uning asosini tashkil etadigan yoki mahsulot tayyorlashda (ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda) zarur komponent hisoblanadigan xomashyo va materiallar;

- mahsulot ishlab chiqarish jarayonida me'yoriy texnologik jarayonni ta'minlash uchun va mahsulotni o'rash hamda boshqa ishlab chiqarish zarurlari uchun sotib olingan materiallar, shuningdek, jihozlarni, ta'mirlash uchun extiyot qismlar, inventar, xo'jalik ashyolari va asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydigan mehnat vositalarining qiymati;

- korxonada montaj qilish va qo'shimcha ishlov berish uchun sotib olingan butlash buyumlari va yarim tayyor mahsulotlar;

- chet tashkiloglar yoki jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, ishlab chiqarishlari va xo'jaliklari tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xususiyatidagi ishlar va xizmatlarga quyidagilar kiradi: mahsulot tayyorlash, xomashyo va materiallarga ishlov berish bo'yicha alohida operatsiyalarni bajarish; iste'mol qilinadigan xomashyo va materiallar sifatini belgilash uchun sinovlar o'tkazish; belgalangan texnologik me'yorlarga rioya qilinishi ustidan nazorat; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash va hokazo.

Chet tashkshyutlarning korxonada ichida yuk tashish bo'yicha transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, asboblari, detallar, yarim tayyor mahsulotlar, boshqa xil yuklarni bazis (markaziy) ombordan tsexlarga olib o'tish va tayyor mahsulotni saqlash omborlariga yetkazib berish) ham ishlab chiqarish xususiyatidagi xizmatlarga kiradi;

— tabiiy xomashyo (erni madaniylashtirishga ajratmalar, yerlarni madaniylashtiradigan maxsus korxonalariga to'lov), o'rmon hududlaridan yoyuch materiallari sifatida olish uchun to'lov, suv xo'jaligi tizimidagi sanoat korxonalarini oladigan suv uchun to'lov (me'yor chegarasida va undan ortiq). Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog'och materiallaridan foydalanish huquqini amortizatsiyalanadigan qiymaga yoki foydali qazilmalar (rudalar) qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari;

— korxonada transporti bilan ishlab chiqarish uchun bajarilgan xizmatlar, texnologik maqsadlar, binolarni isitish, barcha turdagi quvvatni ishlab chiqish uchun sarflanadigan, chetdan sotib olingan yoqilganing hamma turlari;

— korxonani texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish, shuningdek, xo'jalik zaruratlariga sarflanadigan, sotib olinadigan barcha turdagi quvvat (korxonada elektr va boshqa turdagi quvvat hosil qilish, shuningdek, sotib olingan quvvatni iste'mol joyigacha uzatish va quvvatni pasaytirib berish xarajatlari tegishli xarajat moddalariga kiritiladi);

— moddiy resurslarning kamomadi va buzilishlaridagi yo'qotishlar;

— korxonaning transporti va xodimlarining moddiy resurslar keltirish bilan bog'liqxarajatlari (yuklash-tushirish ishlari qo'shilgan holda) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli moddalarini (mexnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshkalar)ga kiritiladi;

— moddiy resurslar qiymatiga moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olingan idish va o'ramlar uchun to'langan korxonada xarajatlari ham qo'shiladi;

— mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqindilar hamda idish va o'ramlarning haqiqiy qiymati sotish, ishlatish yoki omborga kiritilgan qimnaxlarida chegiriladi.

Qaytariladigan chiqindilar — mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan, birlamchi resursning iste'mol xususiyatlarini (kimyoviy yoki jismoniy xossalarni) to'liq yoki qisman yo'qotadigan va shu tufayli oshirilgan xarajatlar (mahsulot ishlab chiqarilishi pasayishi) bilan ishlatiladigan yoki o'zining bevosita maqsadida umuman ishlatilmaydigan xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik eltuvchilar va turli moddiy resurslarning qoldiqlaridir.

Korxonada joriy etilgan texnologiyaga muvofiq boshqa tsexlar, bo'linmalarga bundan keyin ham ana shu yoki boshqa xil mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun to'laqonli xomashyo yoki materiallar sifatida berilayotgan moddiy resurslar qoldiqlari qaytariladigan chiqindilarga kiritilmaydi. Ro'yxati mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) uchun kompensatsiyalar), o'smirlarning imtiyozli soatlari, yosh bolasini ovqatlantirish uchun onalarning ishdagi tanaffuslari, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lovlar;

ish haqi qisman saklanib, majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lovlar;

tekshiruv, qon topshirish va qon topshirishning har bir kunidan keyin beriladigan donor xodimlarga haq;

davlat majburiyatlarini bajarganlik uchun mehnat haqi (harbiy yigan), favqulodda vaziyatlar bo'yicha yillarlar va hokazo);

— agar bajarilayotgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitoblar bevosita korxonaning o'zida qilinsa, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar, shu jumladan pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun korxonada xodimlar jadvaliga kiritilmagan xodimlar mehnatiga xaq to'lash;

— qonunda belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovning boshki turlari.

Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar qonunchshshk tomonidan ishlab chiqarish xususiyatidagi hisoblab yozilgan ish haqiga foizlarda belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblanadi. Ular davlat sururtasi, nafaqa jamg'armasi, nafaqa idoralariga o'tkaziladi.

Korxonalar nodavlat nafaqa jamg'armalari, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sugurtaning boshqa turlariga ajratmalar qila oladi.

Ishlab chiqarish xususiyatidagi xarajatlarga ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning hisoblangan amortizatsiya summaları ham kiritiladi.

Ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amorgazatsiya bo'yicha xarajatlarning tarkibiga quyidagilar kiradi:

— asosiy ishlab chiqarish vositalarining, shu jumladan lizing bo'yicha xarid qilingan va belgilangan me'yorlar tartibida tasdiqlanganlarining, dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari (hisoblangan eskirish) summaları, shu jumladan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallappirilgan amortizatsiya;

— ishlab chiqarish maqsadidagi nomoddiy aktivlar eski-rishi (amortizatsiyasi) korxonalar dasglabki qiymatdan va ularni foydali ishlatish muddatidan (lekin korxonaning faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan) kelib chiqib hisoblangan me'yorlar bo'yicha har oyda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Agar nomoddiy aktivni foydali ishlatish muddatini belgilash mumkin bo'lmasa, eskirish me'yorlari besh yil hisobida, lekin korxonaning faoliyat muddatidan oshib ketmagan holda, belgilanadi.

Ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

— ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, shu jumladan:

ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yoqilgi, quvvat asboblari, moslamalar, boshqa vositalar va mehnat buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;

asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishchi holatida tutib turish xarajatlari (texnik ko'rik va xizmat ko'rsatish, o'rta, joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari);

sanitariya-gigiena me'yorlari bajarilishini ta'minlash xarajatlari, ta'mirlashni o'tkazish uchun zaxira barpo etish xarajatlari.

Zarurat tug'ilganda korxonalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ruxsati bilan karital ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zaxirasini barpo etishlari mumkin. Ushbu zaxiraga ajratmalar "Ishlab chiqarish xususiyatidagi boshqa xarajatlarning" elementi tarkibida aks ettiriladi va xarajatlarning taxmin qilinayotgan qiymatidan va asosiy vositalar har bir ob'ektini kapital ta'mirlashni o'tkazish davriyligidan kelib chiqib belgilanadi. Zaxiraga ajratmalar me'yorlari har bir hisobot yilining oxiri qaytadan ko'riladi va zarurat tug'ilganda yangi moliya yilida ajratmalar miqdorlari ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal ta'mirlashga zaxira qilingan mablag'lar summaları mazkur ob'ektning ta'mirlashning haqiqatdagi xarajatlaridan oshib ketsa, oshgan summa storno qilinishi kerak; agar haqiqatdagi xarajatlarning re-

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlarning 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida xisobga olinadi.

Mahsulot ishlovi texnologiyasi murakkab bo'lgan ishlab chiqarishlarda har oyning oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari xisobga olinadi. Tugallanmagan deb texnologik jarayonida ko'zda tutilgan barcha ishlab chiqarish bosqichini o'tmagan, texnika nazorati bo'limi tomonidan tekshirib qabul qilinmagan buyum va mahsulotga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari inventarlash usulida aniklanadi yoki me'yorlangan (reja)dagi ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha baholanadi hamda 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'i debetidagi qoldiq sifatida xisobga olinadi.

Misol. Quyidagi operatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar mavjud:

Ishlab chiqarishga sarflandi:

1. Materiallar
2. Quvvat
3. Ish haqi
4. Mukofotlar
5. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar

6. Umumishlab-chiqarish sarflari (ishlab chiqarish tannarxiga kiritildi)
 7. Ishlab chiqarish chiqindilari omborga topshirildi - 7,5 ming so'm.
 8. Yaroqsiz mahsulotning haqiqiy tannarxi - 3 ming so'm.

Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari:

Oyning boshiga - 139,4 ming so'm.

Oyning oxiriga - 102,5 ming so'm.

Hisobvaraqlarda bu quyidagacha ifodalanadi:

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'i

- 150 ming so'm.
- 37 ming so'm.
- 162 ming so'm.
- 20 ming so'm.
- 72,8 ming so'm.
- 56 ming so'm.

Oy boshiga qoldiq	139400		
1010	150000	7500	1090
6010	37000	3000	2610
6710	162 000 Q 20	524200	2810
	000		
6520	72800		
2510	56000		
Aylanma	497800		
Oyning oxiriga qoldiq	102500		

Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishning haqiqiy tannarxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$TqXQB-O-Ch-H$$

Bu yerda: T — ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi, X — ishlab chiqarish xarajatlari — 2010 hisobvaraqlarning debetidagi aylanmalar, B — tugallanmagan ishlab chiqarishning oy boshiga qoldiq, O — tugallanmagan ishlab chiqarishning oy oxiriga qoldig'i; Ch — ishlab chiqarish chikindilari qiymati; H — yaroqsiz mahsulotning haqiqiy tannarxi. 524200 q 497800 Q 139400 - 102500 - 7500 - 3000

Bu summaga quyidagi yozuv beriladi:

D-t 2810 "Tayyor mahsulot" - 524,2 ming so'm.

K-t 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" - 524,2 ming so'm.

Texnologiyasi murakkab emas va tugallanmagan ishlab chiqarishi bo'lmagan korxonalarda 2010 hisobvaraqlar qoldiqlarga ega bo'lmaydi va uning debet aylanmalari summasiga yuqorida keltirilgan

D-t 2810 K-t 2010 yozuvi beriladi.

Xizmat ko'rsatuvchi yoki ish bajaruvchi korxonalarda 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'i debeti bo'yicha aylanmalar summasi oy oxirida 9130 «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi» hisobvarag'i debeshga hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarishning hisobi.

Yirik korxonalarda asosiy ishlab chiqarishni quvvat, asboblari, idishlar, ta'mirlash, transport va boshqa xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida yordamchi ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Turlari va vazifalari bo'yicha yordamchi ishlab chiqarishni quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

1) asbobsozlik (asboblari, moslamalar, shtamplar, press-shakllar, modellarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va tiklash). Masalan, yirik tikuvchilik korxonasi zaruriyat bo'lganda tikuv ishlab chiqarishni turli xil furnitura, ya'ni: tugmachalar, metall ilgaklar, knopkalar va hokazolar bilan ta'minlash uchun ularni ishlab chiqaradigan tsex ochishi mumkin;

2) ta'mirlash (asosiy vositalarni montaj qilish, zamonaviylashtirish, xizmat ko'rsatish, ehtiyot qismlar, qurilish detallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish va tiklash);

3) energetika (elektr, issiqlik va boshqa quvvatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash, qisilgan havo bilan ta'minlash, oqova suvlarni tozalash, havo almashtirish, quvvat tarmoqlari va moslamalarini montaj qilish, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish);

4) transport (yuklarni ortish va tushirish ishlari, transport xizmati, yuklarni yo'llarda kuzatib borish, transport vositalari, ortish-tushirish mexanizmlari va kirib-chiqish yo'llariga xizmat ko'rsatish);

5) idish (idishlarni ishlab chiqarish va ta'mirlash);

6) tosh, shag'al, qum va boshqa noruda materiallarini qazib olish;

7) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tuzlash, quritish va konservatsiyalash (asosan savdo korxonalarida) va boshqalar.

Asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish uchun, yordamchi ishlab chiqarishning har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritiladigan 2310 aktiv kal kulyatsiya hisobvarag'i qo'llaniladi.

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» hisobvarag'ining debetida hisobot davri mobaynida mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, yordamchi tsexlar bo'yicha ishlarni bajarish bilan bevosita, shuningdek yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va boshqarish bilan bilvosita boshqarilgan xarajatlar jamlanadi.

2310

Hisob- varaqlar kredit	Debet	Kredit	Hisob- varaqlar debeti
0210-0290 0510-0590	Yordamchi ishlab chiqarishda shptirok etadigan asosiy vositalar bo'yicha eskirishni hisoblash Yordamchi ishlab chiqarishda foydalanadigan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirishni hisoblash	Oy oxirida yordamchi ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini hisobdan chiqarish va ularni tan-narxga kiritish. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining qismini boshqa yordamchi tsexlar xarajatlariga hisobdan chiqarish	2010 2310

Yordamchi tsexlar xarajatlarining qismini umumishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarish

2510 Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari kirim

2810-9130 Yordamchi ishlab chiqarishlarning bajarilgan ishlari va xizmatlarining xaqiqiy tanarxi hisobdan chiqarilgan

1010-1090 Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlariga materiallarning sarf-xarajati

2510 Umumishlab chiqarish xarajataarining ulushi yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilgan

6010 Yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatgan mol yetkazib beruvchilardan olingan to'lash uchun hisobvaraklar

6710 Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga ish haqi hisoblangan

6520 Ish haqidan ijtimoiy sug'urta idoralariga ajratmalar

4220 yoki Yordamchi ishlab chiqarish

6970 rish xodimlarinin xizmat safari xarajatlari aks ettirilgan

6910-6990 Ijara to'lovlari va boshka xarajatlar hisoblanishi.

Ushbu hisobvarakning krediti bo'yicha yordamchi ishlab chiqarishlarning mazkur xarajatlari iste'molchilar bo'yicha taqsimlanishi aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarishlar mahsulotlari tannarxining hisobi va kal kulyatsiyasi, aniq bir tarmoq uchun uning xususiyatlarini xisobga oltan holda belgilangan xarajatlar bandlarining nomenklaturasi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday bandlarga quyidagalarni kiritish mumkin:

- qaytadigan chiqshshilar chegariltan materiallar;
- sotib olinadigan buyumlar va yarim tayyor fabrikatlar;
- yoqilga;
- quvvat;
- ishlab chiqarshp ishchilarining ish hakli;
- ish haqidan ijtimoiy suturtaga ajratmalar.

Yordamchi ishlab chiqarish tsexlari xarajatlarini hisobga olish bo'yicha asosiy dastlabki hujjatlar quyidagilar: asboblari, moslamalar, modellar, press-shakllar, ehtiyot qismlar, idishlarni topshirganligi to'g'risida yuk xatlari; ta'mirlangan ob'ektlar bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari; avtomobillar ishlaganligini tasdiqlovchi yo'l varaqalari; yordamchi tsexlar xodimlariga ish haqini hisoblash qaydnomalari; shuningdek turli hisob-kitoblar, ma'lumotnomalar va yoritishlar.

Yordamchi ishlab chiqarishlarda kal kulyatsiya ob'ektlari bo'lib tannarx xisoblanadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning turlari hisoblanadi. Kal kulyatsiya birligi tarzida odatda quyidagi tabiiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: ehtiyot qismlar yoki asboblarning bir donasi yoki 100 tasi; quvvatning 1 kVG'soati, qisilgan havo yoki gazning 1 metr kubi, avtotransportning 1 km. bosib o'tgan yo'li va boshqalar.

Tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan oddiy yordamchi ishlab chiqarishlarda kal kulyatsiya birligi tannarxi «Yordamchi ishlab chiqarish» hisobvarag'ida hisobga olingan xarajatlar debetining ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlar va xizmatlar birligiganisbati bilan aniqlanadi.

Murakkab yordamchi ishlab chiqarishlarda buyurtmalar va barcha mahsulot tannarxini hisoblashda tugallanmagan ishlab chiqarishning o'tkaziladigan qoldiqlari inobatga olinadi. Bir buyurtma bo'yicha mahsulotning bir necha birligi ishlab chiqarilgan taqdirda, birlik tannarxi xarajatlarning (tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'zgarishini hisobga olgan holda) buyumlar miqdori (ishlar hajmi)ga nisbati bilan hisoblanadi. Buyurtma bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning bir necha turlari ishlab chiqarilgan taqdirda, xarajatlar ularning har biri orasida rejadagi (me'yoriy) tannarxga mutanosib holda taqsimlanadi.

Shuning bilan bir qatorda, yordamchi ishlab chiqarishlar bir-birining mahsulotlar va xizmatlarini o'zaro iste'mol qilish xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Masalan, energetika tsexi boshqa yordamchi ishlab chiqarishlarni quvvat bi-lan ta'minlaydi, transport bo'limi ta'mirlash tsexiga kerakli bo'lgan materiallar tashishni amalga oshiradi va hokazolar. Shu bois, taqsimlanishi lozim bo'lgan xarajatlarni, ya'ni tegishli yordamchi ishlab chiqarishlar mahsulotlari haqiqiy tannarxini hisoblashda, odatda xisobni soddalashtirish uchun rejali tannarx bo'yicha baholanadigan muqobil xizmatlar qiymati e'tiborga olinishi lozim.

Misol. Korxonada o'z extiyojlari uchun yuklar tashishni amalga oshiradigan 10 ta yuk avtomobili mavjud. Oy mobaynida quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan: yoqilg'i-moylash materiallarining sarf-xarajati - 2435 ming so'm, haydovchilarning ish haki - 500 ming so'm, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar - 165 ming so'm, bir oyda avtomobillarning eskirishi 15000 ming so'mni tashkil etgan, jami xarajatlar 18100 ming so'm. Ushbu operatsiyalar quyidagi o'tkazmalar bilan aks ettiriladi:

D-t 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» - 18100 ming so'm

K-t 1030 «Yoqilg'i» - 2435 ming so'm

K-t 6710 «Xodimlar bilan shi haqi bo'yicha hisob-kitoblar» -500 ming so'm

K-t 6520 «Davlatning maqsadli jamgarmalariga to'lovlar» - 165 ming so'm

K-t 0260 «Transport vositalarining eskirishi» - 15000 ming so'm.

Transport xo'jaligi bo'yicha xarajatlarning taqsimlanishi haqiqatda ishlangan avtomobil-soatdan kelib chiqib amalga oshirilgan. 10 ta avtomobil bir oy mobaynida 1230 soat ishlagan, jumladan: a) materiallar tashish bo'yicha - 470 soat; b) tayyor mahsulotni tashish bo'yicha - 600 soat; v) ta'mirlash tsexiga xizmat ko'rsatish bo'yicha - 100 soat; g) asosiy vositalar chiqarilishi bo'yicha tashish xizmatlari - 60 soat. 1 avtomobil-soat tannarxini aniqlaymiz (18100:1230 q 14,715 so'mG'avtomobil-soat).

Avtoxizmatlar taqsimlanishi quyidagicha amalga oshiriladi:

a) materiallarni tashish bo'yicha - 470 soat x 14,715 q 6916 ming so'm;

b) tayyor mahsulotlarni tashish bo'yicha - 600 soat x 14,715 q 8829 ming so'm;

v) ta'mirlash ustaxonasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha - 100 soat x 14,715 q 1472 ming so'm;

g) asosiy vositalar chiqarilishi bo'yicha tashish xizmatlari - 60 soat x 14,715 q 883 ming so'm.

Taqsimlangandan keyin

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» hisobvarag'i quyidagicha yoziladi:

D-t 1010 «Xomashyo va materiallar» - 6916 ming so'm

D-t 9410 «Sotish bo'yicha xarajatlar» - 8829 ming so'm

D-t 2311 «Ta'mirlash ishlab chiqarilishi» - 1472 ming so'm

D-t 9210 «Asosiy vositalarning realizatsiya qilinishi va boshqacha chiqib ketishi» - 883 ming so'm

K-t 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» - 18100 ming so'm.

Ta'mirlash ishlab chiqarishlarda xarajatlar har bir ta'mirlashga alohida ochilgan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha hisobga olinadi. Xizmat ko'rsatish tsexlarining uskunalari joriy soz holda ushlab turish bo'yicha yillik buyurtmalar ochiladi. Unda xarajatlar oy mobaynida jamlanadi va kal kulyatsiya kdlinmasdan tsex-buyurtmachi xarajatlariga o'gkziladi.

Chetda ishlab chiqarilgan va olingan quvvatni, shuningdek uni iste'molchilarga berish hisobi o'lchov asboblari yordamida, ular mavjud bo'lmagan taqdirda esa - uskuna quvvati va ishlash muddatidan kelib chiqib hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar va asboblarni ko'rsatkichlari asosan quvvat iste'molchilar bo'yicha tabiiy ko'rishlatsa taqsimlash qaydnomasi tayyorlanadi. Shuning o'zvida quvvat sarf-xarajati maqsadli yo'nalishlar: uskunalar ishlatish, umumishlab chiqarish yoki ma'muriy xarajatlar bo'yicha taqsimlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi

Ishlab chiqarishni boshqarish xarajatlari salmoqdor bo'lgan korxonalarda umumishlab chiqarish xarajatlari oy davomida 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» hisobvarag'i debeti bo'yicha jamlanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

— boshqaruv apparati va boshqa tsex xodimlarini saqlash;

— ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi);

— ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar, binolar, inshootlar va anjomlarni saqlash va ta'mirlash;

— mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi xarajatlari;

— sinovlar, tajribalar, tadqiqotlar, ratsionalizatorlik va ixtirochilik;

— inventar va xo'jalik ashyolari bo'yicha sarf xarajatlar;

— ishsiz turib qolishlardan yo'qotishlar;

— tsexlarda saqlash paytida moddiy boyliklar buzilishidan yo'qotishlar;

— moddiy boyliklar va ishlab chiqarilishi tugallanmagan mahsulotlar kamomadi;

— boshqa xarajatlar.

Korxonaning buxgalteriya xizmati ushbu xarajatlar smetasini ishlab chiqishi zarur.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining jamlama hisobi 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» aktiv yig'ish-taqsimlash hisobvaraqlar quyidagi hisobvaraqlar bo'yicha yuritiladi;

2510 «Moddiy xarajatlar»;

2511 «Mexnatga haq to'lash xarajatlari»;

2512 «Ijtimoiy ajratmalar xarajatlari»;

2513 «Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortazatsiyasi»;

2514 «Boshqa xarajatlar»;

Oy davomida xarajatlar 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» xisobvarag'i debetida xisobga olinadi, oy oxirida ushbu xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida, shuningdek tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i va tovar mahsuloti o'rtasida taqsimlanadi. Shuning uchun 2510 hisobvaraqa sal dog'a emas.

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» xisobvarag'i bo'yicha asosiy o'tkazmalar chizmasi

Hisob- varaqlar kredit	Debet	Kredit	Hisob- varaqlar debeti
------------------------------	-------	--------	------------------------------

Sal'do yo'q

0211 Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda ishtirok etadigan asosiy vositalar eskirishi hisoblandi

0510 Umumshilab chiqarish xususiyatidagi nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish hisoblandi.

2010 Oy oxirida umumishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarildi va ular tannarxga kiritildi

2310 Umumishlab chiqarishi xarajatlari bir qismi yordamchi tsexlar xarajatlariga hisobdan chiqarildi

Hisob-varaqdar krediti

Debet

1010-1090 Ishlab chikarishga xizmat ko'rsatishga, uskuna va xonalarni ta mirlashga materiallar sarfi

2310 Yordamchi tsexlar xizmatlari hisobdan chiqarildi

6010 Boshqa tashkilotlar xizmatlari (kuvvat, gaz, suv, aloqa va h.k.) hisobdan chiqarildi

6710 Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan band xodimlarga ish haqi hisoblandi

6520 Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan band xodimlar ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar hisoblandi

4220 TSexlar boshkaruv apparatining xizmat safari xarajatlari aks ettirildi

6910- 6990 Ijara to'lovlari xisoblandi va boshqa xarajatlar

Kredit

Hisob-varaqlar debeti

Ishlab chiqarishning xususiyatlariga bog'liq holda umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning turli usullari qo'llaniladi, ularning asosiylari quyidagilardir:

— ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqiga mutanosib ravishda;

— bo'lim xarajatlariga mutanosib ravishda;

— ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga mutanosib ravishda;

— bevosita xarajatlarga mutanosib ravishda va hokazo.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqiga mutanosib ravishda taqsimlashga misol keltiramiz.

Buyumlar	Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi	Taqsimlash koeffitsienti	Umumishlab chiqarish xarajatlarining haqiqiy summasi
A	120 000	0,8	96000
B	180000	0,8	144000
V	100000	0,8	80 000
	400000	0,8	320 000

Hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi: avval barcha buyumlar bo'yicha bir oy uchun haqiqatda hisoblangan ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi summasiga nisbatan xarajatlar koeffitsienti belgilanadi ($320000 : 400000$ q 0,8). So'ngra ushbu koeffitsientga va har bir buyum bo'yicha hisoblangan ish haqi summasiga muvofiq aniq buyumga to'g'ri keladigan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi belgilanadi:

A buyumi ($120000 \times 0,8$) q 96 ming so'm;

B buyumi ($180000 \times 0,8$) q 144 ming so'm;

V buyumi ($100000 \times 0,8$) q 80 ming so'm.

Ushbu xarajatlar taqsimlangach ular asosiy ishlab chiqarishga quyidagi o'tkazma bilan xisobdan chiqariladi:

D-t 2010 «Asosiy ishlab chiqarish».

K-t 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

Yordamchi ishlab chiqarish tannarxiga xarajatlarni hisobdan chiqarish:

D-t 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

K-t 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

Bir turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan va tannarxni kal kulyatsiya qilmaydigan korxonalarda ushbu xarajatlar bevosita 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'ida hisobga olinishi mumkin.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009—2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari — belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifani hal etishga qaratilgan.

Qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008 yili xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009 yilda barcha turdagi energiya manbalari va kommunal xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha narxlarning ko'tarilishini cheklash, ya'ni ularni 6—8 foizdan oshirmaslik mexanizmi ishlab chiqilgan. Ayni vaqtda bu sohalarning ishlab chiqarish rentabelligini so'zsiz ta'minlashi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning faoliyatida sodir bo'lgan xarajatlarni guruhlashtirish u yoki bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilgan. Lekin xo'jalik faoliyatida ro'yobga chiqadigan holatlar ishlab chiqarilgan namunaviy tizimlarga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'z menedjerlarining talabidan kelib chiqqan holda va ularning talabini qondirish uchun ayrim olingan hisob tizimining loyihasini ishlab chiqadilar. Shu bilan bir qatorda ushbu hisob tizimlarining xilma-xilligidan qat'iy nazar sub'yektlar faoliyatining nazariyasi va amaliyoti tomonidan xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulatsiya qilishni tashkil qilishning umumiy tartibi ishlab chiqilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ishlab chiqarish faoliyatida xarajatlarning boshqaruv hisobi tizimini tashkil qiladigan va o'zaro bog'langan uchta element mavjud: ishlab chiqarishga

sarflangan xarajatlarni hisobga olish; tayyor mahsulotlarning hisobini yuritish va ushbu tayyor mahsulotlarning tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Ushbu o'zaro bog'langan tizim elementlarining talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni hisobga olish tizimi ushbu xarajatlarning turlari, tarkibi, mazmuni, yo'nalishi, sodir bo'lgan joylari va mas'uliyat markazlari, mahsulot yoki ishlarning turlari va ularning bir xil guruhlari, buyumlarning qismi va yarimfabrikatlar bo'yicha guruhlashtirishda qo'llaniladigan usullarning o'zaro aloqalarini aks ettirishi lozim va amal qilinayotgan me'yorlar bilan rejalashtirilgan samaradorlikni taqqoslash natijasida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni nazorat qilish usullaridir.

Ularning tarmoqlar bo'yicha xususiyatidan qat'iy nazar har bir xo'jalik yurituvchi subyektda xarajatlarni hisobga olish tizimi xo'jalik faoliyatining natijalarini ishonchli va xolisona aniqlash va ishlab chiqarish faoliyatining borishi ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatini yaratib beradigan tashkiliy modulni talab qiladi.

Shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarishning texnologiya va tashkiliy xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayonining davom qilish muddati, mahsulotlarning miqdor va sifat tasnifi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilishning har xil usullari va uslublarini qo'llashni talab qiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning amaliyotida qo'llanilayotgan ushbu tizimlar quyidagi tartibda turkumlashtiriladi:

A. Guruhlashtiriladigan obyektlar	
Buyurtma tizimi	Jarayon tizimi
V. Me'yorlashtirish darajasi	
Haqiqiy sarflarning tizimi	Me'yoriy sarflarning tizimi
S. Xarajatlarni qamrashning to'raligi	
To'liq sarflarning tizimi	Qisman sarflarning tizimi

8.1- chizma . Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimining turkumlanishi

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimidan foydalanishda o'zbiarmonchilikka yo'l qo'yish mumkin emas. Chunki uni qo'llashning maqsadi boshqarish va xarajatlarni hisobga olish obyektlari bilan chambarchas bog'langan holda yig'ilgan.

Bizning mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va korxonalarining iqtisodiyotiga bag'ishlab chop qilingan adabiyotlarda, 1999-yil 5-fevralda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom, buxgalteriya hisobining standartlari va xalqaro standartlarga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning xarajatini hisobga olish va tannarxini kalkulyatsiya qilishning uchta usuli me'yoriy, ishlov berish (jarayonlar bo'yicha) va buyurtma usullari mavjud. Ushbu usullarning qaysi birini qo'llash har bir xo'jalik yurituvchi subyektda ishlab chiqarilgan mahsulotning turlari, texnologiya jarayoni, tarmoqning xususiyati, ishlab chiqarishni tashkil qilish usuli va uning turlaridan kelib chiqqan holda o'zida ishlab chiqilgan hisob siyosatida ko'rsatadi va rahbarning buyrug'i bilan mastahkamlaydi. Shu bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan turkumlarning hech biri ayrim olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektning ichidagi o'ziga xos xususiyatlarini to'liq va har tomonlama yoritishga da'vogar bo'la olmaydi.

Ushbu yuqorida keltirilgan xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish belgilari xarajatlarni hisobga olish tizimini muvaffaqiyatli tashkil qilishga va bir usulni ikkinchisidan ajratishga yordam beradi va osonlashtiradi.

Xo'jalikni yuritishning samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har qanday bosqichida asosiy va muhim masala hisoblanadi. Bu boshqaruvning me'yoriy tizimini milliy xo'jalik tarmoqlari darajasida va bir subyekt ramkasida qo'llashni muhim qilib qo'yadi.

Xarajatlarni boshqarishning me'yoriy tizimi o'zi bilan rejalashtirish, me'yorlash, materiallarni ishlab chiqarishga berish, ichki hisobot tuzish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, xarajatlarning me'yori asosida iqtisodiy tahlil va nazoratni ro'yobga chiqarish bo'yicha muolajalarning jamlamini aks ettiradi.

Uning asosiy maqsadi bo'lib ishlab chiqarish omillarini to'liq ishlatish va xo'jalikni tejamli yuritish hisoblanadi. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat:

- subyektning oldiga qo'yilgan masalalarni yechishni ta'minlovchi me'yorlar asosida xarajatlarni rejalashtirish;

- me'yor va me'yorlashtirishlar bilan asoslangan ishlab chiqarish maqsadlari bo'yicha turli resurslarni ishlatish uchun ruxsatnomalar berish yo'li bilan xarajatlarni hujjatlashtirish;

- xarajatlarni buxgalteriya hisobining schyotlarida ularning me'yorlari va undan chetga chiqishlarni aks ettirish;

- chetga chiqishlar boshqaruvning chiziqli personal tomonidan boshqaruvning har bir darajasida tannarxning shakllanish jarayoniga tezkor aralashish maqsadida olib boriladi.

Kalkulyatsiya qilish xarajatlarning me'yoriga asoslanadi, me'yordan chiqib ketishlar ularning vujudga kelishi bo'yicha buxgalteriya hisobining schyotlarida ishlab chiqarish natijasining ko'payishi yoki kamayishi sifatida ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarni va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilishni hisobini me'yoriy usuli boshqalardan ko'proq xarajatlarni boshqarishni me'yoriy tizimining talablariga javob beradi. O'zining universal xususiyati tufayli u xalq xo'jaligining hamma tarmoqlariga tatbiq etishga tavsiya qilingan. Me'yoriy boshqaruv hisobiga me'yoriy rejalashtirish va ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarning tizimi sifatida qarash qabul qilingan. Bu tizimning asosiy elementlari: mahsulotning ishlab chiqarish muddatlarini, uning tarkibi va sifatini me'yorlash; iste'mol, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni, shuningdek ishlab chiqarish vositalarini sarflash va ishlatishning me'yoriy asoslanishi; me'yor va me'yorlashtirishlar asosida iqtisodiy samaradorlikni rejalashtirish, hisoblash va baholash hisoblanadi.

Birinchi element to'g'ridan-to'g'ri butun subyekt, asosiy ishlab chiqarish sexlari bo'yicha va brigadalarning ishlab chiqarish topshiriqlarini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni hajmli, kalendar va nomenklaturali rejalashtirish bilan bog'liq. Tizimning ikkinchi elementi ishlab chiqarish bo'linmalarining moddiy va mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini hisoblash uchun, sarflash me'yorlari bo'lgan material va mehnatga haq to'lash me'yorlarini ishlatishni hisoblash uchun yagona me'yoriy asosning mavjudligini ko'zda tutadi. O'z navbatida ishlab chiqarishni hajmli, kalendar va nomenklaturali rejalashtirish iste'molni mehnatni me'yorlash bilan bog'liq ishlab chiqarish vositalarini me'yoriy asoslashsiz mumkin emas.

XULOSA

Shunday qilib, tizimning ikkala elementi ham ishlab chiqarishni tayyorlashning konstruktorlik, texnologiya, tashkiliy va iqtisodiy bosqichlarini qamrab oladi. Ular chiqarishga rejalashtirilgan mahsulot nomenklaturasi bilan cheklangan, mehnatning tashqi va subyektning ichki kooperatsiyasiga asoslangan. Bu holat ishlab chiqarishning tabiiy asosini tarkib etuvchi rejalashtirish va hisobning ustuvorligi haqidagi xulosani yana bir marta ta'kidlaydi.

Bir subyektda xarajatlarni hisobga olishning usulini tanlash ushbu subyektning tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Lekin umumiy taklif sifatida ushbu xarajatlarni hisobga olishning me'yoriy hisobini tashkil qilishning uchta turini ajratish mumkin:

A. Me'yoriy xarajatlar bo'yicha hisobga olish. Ushbu usulda sarflangan haqiqiy xarajatlar quyidagi ko'rinishda aniqlanadi: Me'yoriy xarajatlar \pm me'yordagi xarajatlardan chetga chiqish q haqiqiy xarajatlar.

Ushbu tartibda buxgalteriya hisobida moddiy qiymatliklarning harakati belgilangan me'yorlar bo'yicha baholanishi shartidan kelib chiqiladi. Ushbu faoliyat jarayonida aniqlangan chetga chiqishlar ro'yobga chiqish holatida yig'ilib boriladi va hisobot davrining oxirida me'yordagi xarajatlarning hajmiga qo'shiladi.

V. Haqiqiy va me'yordagi xarajatlarni bir yo'la hisobga olish. Ushbu usul ishlab chiqarishdagi xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ikki bahoda: haqiqatda yig'ilgan xarajatlar bo'yicha; haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmiga sarflangan me'yoriy xarajatlarning miqdorida yoritishni nazarda tutadi.

Haqiqiy sarflar - Me'yordagi sarflar \pm Chetga chiqishlar.

S. Aralash usulda hisobga olish. Ushbu usul ikkita yo'l bilan hisobni yuritishni nazarda tutadi.

Birinchi yo'l. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning amaliyotida keng tarqalgan va mamlakatimizda ham qo'llanishi tavsiya qilingan. Lekin hisobot davri davomida jami chetga chiqishni aniq darajada hisobga olish imkoniyati mavjud emas. Hisobot oyining oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishning me'yoriy tannarxi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning me'yordagi hajmi bilan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning me'yoriy tannarxining farqi ko'rinishida aniqlanadi. Natijada oy davomida yoki boshqa hisobot davrida hisobga olinmagan chetga chiqish summasi hisobot davrining oxiridagi ishlab chiqarishning qiymatida qo'shiladi.

Ikkinchi usul. Asosiy xarajatlar bo'yicha tasdiqlangan me'yorlarga rioya qilish ustidan kundalik nazoratni o'rnatishni nazarda tutadi. Hisobot davri davomida me'yordan chetga chiqish bo'yicha olingan ma'lumotlar buxgalteriya hisobining tegishli registrlarida umumlashtirilmaydi va schyotlarda qayd qilinmaydi.

Tasdiqlangan me'yorlardan chetga chiqish summasi baholangan tayyor mahsulotning hajmiga sarflangan haqiqiy xarajatlar bilan ushbu mahsulot uchun sarflanishi lozim bo'lgan me'yoriy xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan bir xil mahsulotlarning har bir guruhi bo'yicha aniqlanadi. Ushbu holatda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati ishlab chiqarishda yarim fabrikatlar harakatining balansi bo'yicha natura ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda me'yoriy tannarxi bo'yicha baholanadi, yoki bo'lmasa ishlab chiqarish bo'linmalaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni xatlab hisobga olish asosida baholanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1996 yil.
2. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Toshkent, 1999 yil, 54-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisobotni to'ldirish to'g'risida).
4. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. - T.; Mehnat, 1999.
5. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. - T.; Fan, 1998.
6. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I-III tom. TMI va IUT, 1994 yil.
7. Sotivoldiev. A., Itkin Yu. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. (Yangi schyotlar rejasi asosida), PBvaAA - 2002 yil. 1-2 tom.
8. Moliyaviy hisob. KARANA korporatsiyasi - 2000 yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 2000-2002 yillar.
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. - T.; 1997.
11. Sanaev I.S. «Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashning dolzarb masalalari». - T.; Mehnat, 1991.
12. Sotivoldiev A.S. «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi». - T.;Mehnati, 1991.
13. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. - M.; O.O.O Askeri, 1996 g.